

MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIY IRFONiy QARASHLARI VA UNING ISLom MA'NAViyATI, FALSAFIY ILM TARAQQIYOTIDAGI O'RNI

Zafarjon Yunusovich ADILOV

falsafa fanlari bo'yicha (PhD) falsafa doktori

Ma'mun universiteti

Urganch, O'zbekiston

adilov@mail.ru

Annotatsiya

Ushbu maqolada Mahmud az-Zamaxshariyning so'fiylik ta'limoti haqidagi fikrlari tahlil qilinadi. Zamaxshariy tasavvufning falsafiy-teologik oqim sifatida rivojlanishiga, uning islom tasavvufi bilan uyg'unlashuviga katta e'tibor berganligi, so'fiylikning uch asosiy bosqichi, uning Yusuf Hamadoni, Ahmad Yassaviy kabi shaxslarga ta'siri, Movarounnahr ijtimoiy-madaniy hayotidagi o'rni haqida so'z yuritiladi. Muallif tasavvufning ijtimoiy-falsafiy asoslarini Zamaxshariy asarlari va so'nggi tadqiqotlari orqali ochib beradi.

Tayanch so'zlar: Mahmud az-Zamaxshariy, so'fiylik, islom falsafasi, Movarounnahr, Yusuf Hamadoni, Ahmad Yassaviy, tarixiy jarayonlar, so'fiylik, ma'naviyat, ijtimoiy hayot, diniy ta'limot, mo'taziliylar harakati.

СУФИЙСКИЕ ВЗГЛЯДЫ МАХМУДА АЗ-ЗАМАХШАРИ И ЕГО РОЛЬ В РАЗВИТИИ ИСЛАМСКОЙ ДУХОВНОСТИ И ФИЛОСОФСКОЙ НАУКИ

Зафарджон Юнусович АДИЛОВ

Доктор философии (PhD) по философским наукам

Университет Мамуна

Ургенч, Узбекистан

adilov@mail.ru

Аннотация

В данной статье анализируются мысли Махмуда аз-Замахшари о суфийском учении. Замахшари уделял большое внимание развитию суфизма как философско-теологического течения и его интеграции с исламским суфизмом. В статье говорится о трёх основных этапах развития суфизма, его влиянии на таких людей, как Юсуф Хамадани, Ахмад Яссави, а также о его роли в социальной и культурной жизни Маверуннахра. Автор раскрывает социально-философские основы суфизма через труды Замахшари и новейшие исследования.

Ключевые слова: Махмуд аз-Замахшари, суфизм, исламская философия, Маверуннахр, Юсуф Хамадани, Ахмад Ясави, исторические процессы, суфизм, духовность, общественная жизнь, религиозное учение, движение мутазилизм.

Mahmud az-Zamaxshariy So'fiylikni tasavvuf (arab tilidan) sufizm deb ham yuritadi. Zamaxshariy ta'kidlashicha tasavvuf - diniy-falsafiy oqim bo'lib, islomda

VIII asrda arab mamlakatlarida vujudga kelgan va ijtimoiy taraqqiyotning xususiyatlari bilan bog'liq ravishda paydo bo'lgan. Tasavvuf musulmon mamlakatlarida murakkab davrlarni qamrab oladi, uzoq tarixiy jarayonlar uning shakllanishi va rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan ijtimoiy hodisadir, shuningdek, xalqlarning moddiy va ma'naviy merosida, ijtimoiy va axloqiy hayotida katta iz qoldirganini aytib o'tgan

Zamaxshariy tasavvuf ta'limotining rivojlanish bosqichlarini shartli ravishda uch davrga bo'lish mumkin: birinchi davr, tasavvufning paydo bo'lishi, shakllanishi va yoyilishi davri; ikkinchi davr, tasavvuf va islomning uyg'unlashuvi davri (X–XI asrlar); uchinchi davr, tasavvuf tariqatlarining qaror topishi va tasavvuflarning ommalashuv davri (XII–XV asrlar).

Bartelsning tadqiqot natijalariga ko'ra, bu davrlarning har birida tasavvuf ta'limotining paydo bo'lishi tariqatlarining shakllanishi va muxlislari o'rtasida tarqalishining o'ziga xos xususiyatlari va rivojlanish bosqichlari bo'lganligi ko'zga tashlanadi. Masalan, tasavvuf yaxlit ta'limot sifatida XIII asrgacha mavjud bo'lgan ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy va diniy irfoniy g'oya va ta'limotlar zahirida shakllandi va qaror topdi. Bu davrda otashparastlik, buddaviylik, qadimgi yunon falsafasi va xristianlikdagi diniy g'oyalar ta'sirida shakllangan tasavvuf yaxlit ta'limot sifatida rivojlanishi islom ta'limoti va g'oyalari bilan uyg'unlashishi zaruriyatga aylandi. Ya'ni, islom ta'limoti asosida tasavvuf o'z aqidalarini shakllantirib, tartibga solib, IX–X asrlarda yaxlit tizim ta'limotiga aylandi [2].

Tasavvuf ta'limoti yuzaga kelishining yana muhim sabablaridan biri sifatida Mahmud az-Zamaxshariy ko'p mamlakatlarni rivojlantirish, diniy ta'limotni hayotga tatbiq qilish borasida turli xil yondoshuvlarning mavjudligini bayon etib o'tgan.

Zamaxshariy qarashlariga ko'ra, shu davrda Movarounnahrda tasavvuf tariqati kirib kelishida Yusuf Hamadoniyni (vafoti 1140-y.) xizmati katta bo'lgan. Uning Movarounnahrda tasavvuf ta'limotini keng yoyish, targ'ibot yurgizishga asos solgan maktabidan keyinchalik to'rt mashhur tasavvuf olimlari: Abdullo Barqiy, Xoja Hasan Andoqiy, Xoja Ahmad Yassaviy, Abduxoliq

G'ijduvoniylar yetishib chiqdilar. Mahmud az-Zamaxshariy ham shu allomalarning vorisiy davomchisi hisoblanadi.

Islom dunyosida tasavvuf ta'limotining shakllanishi va rivojlanishida muhaddis va diniy ulamolarning ta'siri katta bo'lgan. Vatandoshimiz Imom Buxoriy, Al-Hakim at-Termiziy, al-Zamahshariy, Marg'inoniylarning asarlari ham nazariy, ham amaliy jihatidan asos bo'lib xizmat qilgan.

“Yassaviya” tariqatining qoidalari Ahmad Yassaviyning “Hikmat” degan asarida o'z ifodasini topgan. Unda yozilishicha, inson mehr-shafqat, halol-pok, halol mehnati bilan kun kechirish orqali Alloh visoliga yetishi mumkin. Yana u molu dunyo to'plashga harakat qilmagan, faqirlikda kun kechirgan. Oxiratni o'ylamaydiganlar haqida Ahmad Yassaviy shunday deb yozadi:

Beshak biling, bu dunyo barcha xalqdan o'taro,
Ishonmagin molinga, bir kun qo'ldan ketaro,
Ota, ona, qarindosh, qayon ketdi, fikr qil,
To'rt oyoqli cho'bin ot bir kun sango yetaro.

Markaziy Osiyoda tasavvuf tariqatlarining rivojlanishi bu xududda islom ta'limotlarining keng yoyilishi va qaror topishi bilan uzviy bog'liq bo'lgan. Bu jarayonda islomgacha bo'lgan diniy qarashlar va milliy madaniyat turlariga munosabat masalalari ham mavjud edi.

Umuman olganda Markaziy Osiyo xalqlarining islomgacha bo'lgan e'tiqodlari, madaniyati, arxitektura an'analari, adabiyot va san'at ham jonlana bordi. Turk tilida kitoblar chiqdi. Turk tiliga davlat maqomi berish, ma'naviyatda milliylikni qaror toptirish mayllari kuchaydi. Xolis gapirganda, islomning tez orada xalq e'tiqodiga aylanishida uning g'oyalari, e'tiqodlarida zardushtiylik bilan yaqinligining ham ta'siri katta bo'ldi. Chunki asrlar davomida xalq e'tiqod qilib kelgan zardushtiylikni olamning yaratilishi, gunohlarning yozib borilishi, o'limdan keyin narigi dunyodagi ajr, jannat va do'zax, qil ko'prik va xaloskorning kelishi kabi g'oyalar islomda ham to'laligicha o'z ifodasini topgan edi. Ammo zardushtiylikning asosiy g'oyasi-tabi'at va jamiyat, inson qalbida ezgulik bilan yovuzlik o'rtasidagi abadiy-murosasiz kurash, bunda Axuramazda tartiblariga

rioya qiluvchilar ezgulikni qaror toptirish uchun yovuzlikka qarshi kurashib, oxir-oqibat g'alaba qozonishlari to'g'risidagi ta'limot aql-idroki rivojiga yo'l ochardi. Ilm-fanni rivojlantirish esa ezgulik ifodasi hisoblanardi. Shuning uchun ham islomgacha zardushtiylik ibodatxonalarining barchasida dunyoviy ilmlar o'rgatilar, unga ixlos kuchli edi.

Az-Zamahshariy tafsir, hadis, fiqh, nahv, geografiya, lug'at, adabiyot, aruz, tarjimai hol, til kabi sohalarida ijod qilgan. Arab tili grammatikasini takomillashtirgan, bu sohadagi kitoblari ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Bu 1118-yilda og'ir xastalikdan so'ng qolgan umrini faqat ilmga bag'ishlaydi. Az-Zamaxshariy hayotida chuqur iz qoldirgan kasallanganidan keyin taxminan besh yil yashadi. Shuning uchun ham uning sharaflari ismi Jarullo ("Xudoning qo'shnisi"). Keyin Xorazmda bir necha yil yashab, milodiy 1144-yili Jurjoniya (hozirgi eski Urganchda) vafot etadi. U she'rlaridan birida "Makkada qalb orom, qalb pokligi, namoz zavqini his qiladi", deb yozgan edi. Mutaakkir olim jami 54 ta asar yozgan bo'lib, ularning deyarli barchasi bizgacha yetib kelgan. Uning asarlaridan eng mashhuri Qur'oni Karimning "Al-Kashshof" nomli tafsiridir. Asarning to'liq nomi "Al-Kag'shiof an haqiq" pandiyl va uyun al-aqaviyl fi vushhd ig-ta'viyl ("Qur'ondagi yopiq haqiqatlar va rivoyatlarni sharhlab ko'z ochuvchi"). . Az-Zamaxshariy ijodi haqida: Agar hidoyat izlayotgan bo'lsangiz, "Al-Kashshof"ni qayta o'qing. Agar jaholat kasallik bo'lsa, "Al-Kashshof uning davosi", deb takrorlar edilar. Darhaqiqat, dunyo olimlarining e'tirofiga ko'ra, "Al-Kag'shiof" Qur'onning turli davrlarda yozilgan tafsirlari ichida eng mukammali bo'lib, dunyoga mashhur "Al-Azhar" universiteti talabalari undan "Al-Azhar" tafsiridan foydalanadilar va bu juda muhim dastur, vositadir.

Az-Zamaxshariy garchi hukmdoru-sultonlarga bag'ishlab (hayot taqozosiga ko'ra) ko'plab madhiyalar yozgan bo'lsa-da, o'zining bu qilmishlaridan qattiq nadomat chekadi va so'fiylarga xos fikr yuritadi. Uning «Atvoq uzzahab» («Oltin shodalar») nomli asari xuddi shu ruhda yozilgan:

E oltinu kumush chatsalarning quli,

Sen bulardan sachon xolis bo'lasan?

E mansab ta'masiyu xirsning asiri,

Sen ulardan sachon ozod bo'lasan?

Az-Zamaxshariy tasavvufning mo'taziliy oqimini himoya qilib ijodiy bahs va munozara olib borgan. Alloma o'z umrining aksar qismini xorijiy yurtlarda, musofirchilikda o'gkazganligi tufayli, arab, fors olimlari ularning ijodi, mashhur asarlari, falsafiy qarashlari to'g'risida juda ko'p ma'lumotlar beradi. Ilohiyot bobidagi hissasini qayd etib, mashhur olim Ibn Xollikon: «Az-Zamaxshariy tafsir, hadis, nahv, lug'at va ilmi bayon bo'yicha buyuk imomdir. Hech bir mubolagasiz mazkur ilmlarda u o'z davrining yagonasi, ko'pdan-ko'p asarlarning muallifi edi», – deb yozsa, Az-Zamaxshariydan bir necha asr keyin yashagan xaniqsh Misr tarixchisi Ibn Tag'riberdi, – «Shayx buyuk alloma, o'z davrining yagonasi, o'z davrining peshvosi va imom bo'lgan», deb yozadi [5].

Zamaxshariyning ustozlaridan biri Gurganjdan Abu Ali Qori (al-Hasan bin al-Muzaffar an-Naysaburiy) Isfahondan kelib qolgan iqtidorli shogirdiga arab tilini o'rgatibgina qolmay, uni moddiy tomondan ham qo'llab-quvvatlagan. Zamaxshariy o'z ustozini hurmat-ehgirom bilan eslab yurgan. Abu Mudar Mahmud bin Jarir ad-Dabbi, tilshunos grammatik, (1113-yilda vafot etgan) unga fiqh ilmini o'rgatgan shayx al-Hayyotiy va imom Rukniddin, ilohiyotchilikni o'rgattan Mahmud al-Usuliy va Abu Mansur (so'npi ikkigasi keyinchalik Zamaxshariyning o'ziga shogird tutingan) edilar.

Zamaxshariyning shogirdlari asosan xorazmlik, movarounnahrlik va xurosonlik adiblar, ilohiyotchilar edi. Makkada, uning ijodiy yetuklik davrida 1134-yil 20-fevralda yozib tutatilgan Quron tafsiri al-Kashshof asari ilohiyotchilikning noyob manbaidir. Bu asarning yaqqrl mo'taziliylik yo'nalishda ekanligi quyidagilarda namoyon bo'ladi: Birinchi jumladayoq Qur'onning yaratilganligi goyasi ifodalangan; Zamaxshariy asosan VIII–X asrlarda yashagan iroqdik, eronlik Amir bin Ubayd, Abu Bakr al-Asam, az-Zajjaj, al-Johiz, Qozi Abdal Jabbor va boshqa shu kabi mo'taziliy olimlarga suyangan. Yakkaxudolik (tavhid), Ollohiish odillish va boshqa ilohiy sifatlarni Zamaxshariy ratsional (aqshy) talqin qiladi; u Qur'onda xuddiki, mo'taziliylar uchun suyukli goyalar –

Olohning va'dalari (na'd) va qo'rqituv (vayd), oraliq holat (al-manzila bayn al-manzilatayn), yaxshilik qilish va ta'qiqlangan narsadan parhez qilish to'g'risidagi joylarini topadi; mo'taziliylarga xos bo'lgan Qur'on matnini sinchkovlik bilan filologik talqiniga alohida urg'u berib, undan o'zining g'oyaviy maslaklarini asoslashda foydalandi. Az-Zamaxshariy asari bizgacha yetib kegan mo'taziliy ta'limotning yagona to'liq tafsiridir. Uning atrofida anchagina tanqidiy adabiyotlar, raddiyalar, mo'taziliy g'oyalardan tozalangan, qayta ishlangan nashrlar yaratilgan.

Hatto Zamaxshariyning raqiblari ham uning iste'dodiga, ravon fikriga tan berar edilar. Uning lingvistik va stilistik kuzatishlari yuksak baholanar edi. Uning axloqiy-ma'naviy obro'siga gard yuqmagani, beg'ubor edi.

Ma'naviyatimizning ko'hna va g'oyat mazmunli tarixida ulug' bobokalonimiz al-Moturidiy Abu Mansur Muhammad bin Muhammad al-Xanafiyning o'rnini beqiyosdir. Bu ulug' allomaning xalqimiz ma'naviyati, islomshunoslik fani rivojiga qo'shgan buyuk hissasini Prezidentimiz Islom Karimov quyidagicha ifodalab berdi: «Manbalarning guvohlik berishicha, Imom Buxoriy vafot etgan yili, ya'ni milodiy 870-yili tariximizdagi yana bir mumgoz siymo Imom Moturidiy tavallud toptan ekan. Bu voqea zahirida shaxsan menga ilohiy bir bog'liqlik, Olohning buyuk marhamati bordek, bamisoli Imom Buxoriyning nurli qalamini Imom Moturidiy olib, ul zotning xayrli ishlarini davom ettirishga bel boglagandek tuyuladi. Imom Moturidiy bobomizning o'rta asrlardagi goyat xatarli va tahlikali bir vaziyatda o'z hayotini xavf ostida qo'yib, avlodlarga ibrat bo'ladigan ma'naviy jasorat namunasini ko'rsatib, islom olamida «Musulmonlarning e'tiqodini tuzatuvchi» degan yuksak sharafiga sazovor bo'lgani bu nodir shaxsning ulkan aql-zakovati va matonatidan dalolat beradi.

U zot asos solgan Moturidiya maktabi Sharq mamlakatlarida bunday katta shuhrat topishining sababi shundaki, unda ilgari surilgan g'oyalar islom dinimizning asosini to'g'rilik, ezgulik va insoniylikdan iborat deb biladigan jamiki mo'min-musulmonlarning qarash va intilishlari bilan hamohang edi [3].

Prezidentimiz rahnamoligida xalqimizning haqqoniy tarixi tiklanib, buyuk allomalarning muborak nomlari, ularning jahon ilm-faniga, islom

ilohiyotshunosligiga qo'shgan olamshumul hissalarini tarix sahifasidan o'z o'rnini topmoqda. Shuningdek, olamga mashhur al-Buxoriy, al-Marg'inoniy, Abduxoliq G'ijduvoni, Bahouddin Naqshband kabi allomalarimizning tavallud to'ylari keng nishonlandi va nishonlanmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 3-dekabrda qabul qilingan «2000-yilda kalom ilmining asoschilaridan biri, hadis va fiqh olamining ravnaqiga ulkan hissa qo'shgan yirik alloma, buyuk vatandoshimiz Abu Mansur al-Moturidiy tavalludining 1130-yilligini nishonlash to'g'risida»gi qarori e'lon qilindi. Bu buyuk shaxs musulmon olami tarixiga islom nazariyotchisi sifatida kirgan bo'lib, islom dini ravnaqiga, uning sofliгинi asrashga, islom dini ma'rifatini tarqatishga katta hissa qo'shgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: O'zbekiston, 2022.
2. Бартельс Е.С. Суфизм и суфийская литература. – Москва: 1965.
3. Каримов И. Юксак маънавият — енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008.
4. «Рабиъ ал-аброр» кўлёмаси. ЎзР ФА Абу Райхон Беруний номидаги Шарқшунослик институти Асосий фонди. Кўлёмма № 2384. – В. 190-200.
5. Уватов У. Маҳмуд Замахшарий. – Тошкент: Халқ мероси нашриёти, 1995.
6. <https://lex.uz/docs/-5841063>